

«INFORMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARINING AXBOROT  
TEKNOLOGIYALARIDAN TO'G'RI FOYDALANA OLIISH MALAKALARINI  
SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL ISHLASHDAN FOYDALANISH»

**Ashurova Shaxnoza Maxmudjonovna**

*Buxoro viloyati Vobkent tuman*

*27- maktab informatika fani o'qituvchisi*

**Hojiyeva Nasiba Baxshilloevna**

*Buxoro viloyati Vobkent tumani.*

*28-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining.*

*Informatika fani o'qituvchisi*

**Anotatsiya:** *informatika darslarida o'quvchilarining axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalana olish malakalarini shakllantirishda mustaqil ishlashdanning natijalari.*

**Kalit so'zlar:** *informatika, axborot texnologiyalari, kompyuter savodxonligi.*

Ta'lim sohasida bo'layotgan har bir o'zgarish jamiyatimiz ravnaqiga ijobiy ta'sir qilishiga shubha yo'q. Mamlakatning intellektual salohiyatini oshirish, davlat ta'lim standarti talablariga javob bera oladigan, yetuk, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Qaysi sohada bo'lmasin bilimlarni mustaqil ravishda egallashga intilish - o'quvchi faoliyatining ta'lim muassasasidagi eng ajralib turadigan xususiyati, mustaqil o'qib, bilim orttirish asosi hisoblanadi. Ta'lim tizimida mustaqil bilim olish, nazorat qilish mustaqil ta'lim olishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Mustaqil bilim olishda avvalo, o'quvchilarda mustaqillashga, erkin, ijodiy faoliyat yuritishga va eng asosiysi mustaqil fikrlashga ehtiyojni shakllantirish lozim. Dars jarayonida o'quvchilarning mustaqil bilim olishlari va ularni kelajakda o'z faoliyatida amaliy qo'llay olishimuhim masalalardan biridir. Har bir darsning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mashg'ulotni to'g'ri tashkil etishga bog'liq. Maktablarimizda darsning boshlanish davrini - darsning tashkiliy daqiqalari deb yuritiladi. To'g'ri, darsning shunday birkichik tashkiliy qismi ham bo'lmog'i lozim. Biroq, bu dars shaklining biror bosqichi yoki tuzilishigakirmasligi kerak. Tashkiliy daqiqada sinfning tayyorgarligini sinchiklab kuzatish muhimdir. Tajribali o'qituvchilar fursatni qo'ldan bermay, o'quvchilar diqqatini chalg'itmay, darhol ish boshlab yuboradilar. Ayni paytda o'qituvchi oldida ikki vazifa - butun sinf o'quvchilari diqqatini o'ziga jalb qilish va butun sinf o'quvchilarini tezlik bilan mashg'ulotga faol kirishishlarini ta'minlash vazifalari turadi. Dars mashg'ulotdan ko'zlangan maqsadni ravshan va aniq qilib uqtirish bilan boshlanadi. Dars yangi materialni bayon qilishga qaratilgan bo'lsa, dars mavzusi aytiladi. Darsda rejada mo'ljallangan materialni o'tib bo'lingach, u albatta yakunlanishi, xulosalar chiqarilishi kerak. Darsni tashkil etish va olib borishdagi bosh maqsad - ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashdir.

Buning uchun:

a) o`tilayotgan mavzudan ko`zlangan maqsadni uqtirish bilan bir vaqtda, o`quvchilar materialni faolidrok qilishga safarbar etilgan bo`lishlari kerak. Ya'ni o`qituvchi bayon qilayotgan materiallar o`quvchilarnimustaqil fikr yuritishga, ongli o`zlashtirishga intilishlarini ta'minlamog`i lozim;

b) ajratilgan vaqt ichida o`qituvchi materiallarni tizimli va izchil bayon qilish bilan bir vaqtda, o`quvchilarniham, albatta, mavzuga oid mustaqil ish olib borishlarini ta'minlash juda muhimdir.

O`qituvchi dars materiallarini bayon qilish jarayonida o`quvchilarga muammoli vaziyat tug`diradigansavollar bersin va axtarish, fikrlash va izlanishlar yo`li bilan bayon materiallarni puxta o`zlashtirib oladiganbo`lsinlar. Bunda umumsinf jamoasi va har qaysi o`quvchining o`ziga xos xususiyatlari hisobga olinganbo`lmog`i lozim;

v) endilikda darsda uzoqdan-uzoq vaqt sarflab o`quvchilarning bilimni aniqlash va baholash, bilimlarnibayon qilish va mustahkamlashda o`quvchilar ishtirokini cheklab qo`yish kabi hollarga barham berilmoqda.

Bilimlarni bayon qilish jarayonida o`quvchilar faolligi (og`zaki va yozma mashqlar, laboratoriya-tajribaishlari, mustaqil ijodiy ishlar) ishga solinmog`i lozim. Bu, o`z navbatida, o`quvchilarning oldindano`zlashtirgan bilimlarini ham ishga tushirishga xizmat qiladi va to`g`ri baholash uchun katta imkoniyattug`diradi;

g) o`quvchilarning mustaqil mantiqiy fikr qilishlari, qunt, irodalarini tarbiyalashhamda nutq madaniyatirivojlantirish, tegishli ko`nikma va malakalar bilan qurollantirishda mustaqil ishning ahamiyati hamishadiqqat markazida bo`lishi, dars jarayonini shu maqsadga muvofiq qurish nazarda tutilmog`i lozim;

d) dars jarayonida o`tilayotgan o`quv materiallarining boshqa fanlarning aloqador mavzulari bilanbog`lanishini ko`rsatish ham muhim ahamiyatga molikdir.

Har bir dars turining ma'lum tuzilishi va xususiyatlari bor, bu narsa o`qituvchining o`quv materialini to`g`ri va samarali tushuntirishiga, mustahkam esda qoldirishga, takrorlashga va uning o`zlashtirilishini nazoratqilib borishiga yordam beradi.

Jamiyat va ta'limni axborotlashtirish jarayonlarini jadallashtirish sharoitlarida o`quvchilar bilan dars mashg`ulotlarini raqamli vositalardan foydalanib, zamonaviy raqamli kommunikatsiya muhitida o`tkazish katta samara beradi. Kichik yoshdagi o`quvchilarni axborot va kommunikativ texnologiyalarga o`rgatish va ularni to`g`ri qo`llash qobiliyatini boshlang`ich umumta'lim bosqichidagi universal o`quv faoliyatlari bilan uyg`unlikda shakllantirish, uning samaradorligini ta'minlashning muhim elementi hisoblanadi.

Shuning uchun boshlang`ich umumta'lim bosqichida universal o`quv faoliyatlarini shakllantirish uchun quyidagilarga: har qanday faoliyatlarga kiruvchi axborot texnologiyalarini qo`llash sohasidagi elementlar bilan tanishtirish, kompyuter

savodxonligi elementlari hisoblangan texnologik ko'nikmalar alohida emas, balki idrok etish va kommunikativ masalalarni hal etish uchun ularni qo'llash bilan birgalikda shakllantirilishiga e'tibor qaratish zarur. Bu vositalaridan foydalanish universal o'quv faoliyatlarini tartibsiz shakllantirishdan maqsadga yo'nalgan va reja asosida shakllantirishga o'tishga yordam beradi. Albatta, universal o'quv faoliyatlarining shakllanganligini baholashda axborot texnologiyalari keng qo'llanilishi mumkin (va kerak). O'qituvchilar va o'quvchilar o'z faoliyatlarini hamda natijalarini rejalashtiradigan, shuningdek, qayd etadigan axborot ta'lim muhiti ularni shakllantirish uchun juda muhim ahamiyatga ega.

Axborot texnologiyalari bilimdonligiga boshlang'ich sinflarda yosh bo'yicha ehtiyojlari va imkoniyatlari doirasida axborot texnologiyalari vositalaridan va axborotmanbalaridan foydalanib, o'quv masalalarini hal qilish qobiliyati sifatida o'quv kompyuter bilimdonligini ajratib ko'rsatish kerak. Kichik yoshdagi o'quvchining umumiy (umumfoydalanuvchilik) axborot texnologiyalari bilimdonligi uning bir qismi hisoblanadi. Ko'pchilik hollarda boshlang'ich sinf o'quvchilari umumiy axborot texnologiyalari bilimdonligi elementlarini ulardan kattalar kundalik hayotlarida va kasbiy faoliyatlarida foydalanishlari darajasida o'zlashtiradilar.

Kompyuter savodxonligini shakllantirish masalasining hal etilishi faqat alohida o'quv fanlari dasturlarida emas, balki, o'quv faoliyatida mohiyati jihatidan bog'liq bo'lgan universal bilimdonlikni shakllantirish bo'yicha dasturlar doirasida qayd etilishi kerak.

Shaxsiy bilim faoliyatlarida fanlarni o'zlashtirishda quyidagi:

- axborotga tanqidiy munosabatda bo'lish va uni tanlab qabul qilish;
- boshqalar shaxsiy hayotlari haqidagi axborotni va axborot natijalarini hurmat qilish kabi xislatlarni shakllantirishga e'tibor qaratiladi.

O'quv faoliyatlarini o'zlashtirishda quyidagilar ta'minlanadi:

- axborot muhitida amalga oshiriladigan faoliyatlar sharoitlari, borishi va natijalarini baholash; amalga oshirilgan faoliyatlarni o'quvchilarning o'zlari, uning o'rtog'i va

o'qituvchi tomonidan baholash hamda ularni tuzatish uchun raqamli axborot muhitida joylashtirilgan faoliyatlar natijalaridan foydalanish;

- o'quvchining o'qishdagi yutuqlari raqamli portfoliosini yaratish. Idrok etish universal o'quv fanlarini o'zlashtirishda axborot texnologiyalari umumta'lim universal faoliyatlarida muhim rol o'ynaydi va pedagogmutaxassislarning asosiy vazifalari quyidagilar: o'quvchining individual axborot arxivlarida, ta'lim muassasasi axborot muhitida, axborot ta'lim resurslari mintaqaviy

zahiralarda axborot izlashni o'rgatish; atrof-olam va ta'lim jarayoni haqida axborotlarni qayd etish (yozib olish), jumladan, audio va video yordamida (o'quvchilarning ishlarini va boshqalar)ni yozib olish, raqamlashtirishni o'rgatish;

bilimlarni tizimlashtirish, ularni tashkil etish va konseptual diagrammalar, xaritalar,

davr yoʻnalishlari va genealogik daraxtlar koʻrinishida taqdim etish; klaviatura vositasida teriladigan matnlardan iborat gipermedia xabarlar, raqamli maʼlumotlar, tasvirlar va tovushlar, xabar elementlarini yaratishni oʻrgatish; audio-koʻrgazmali namoyish etish bilan chiqishlar tayyorlash; haqiqiy va virtual konstruktorlar konstruktiv elementlaridan obyektlar va jarayonlar modellarini shakllantirishdan iborat.

Kompyuter savodxonligi oʻquv faoliyatlarini shakllantirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Buning uchun quyidagilardan foydalaniladi:

- gipermedia-xabarlar yaratish;
- audiokpoʻrgazmali namoyish mahsuloti bilan chiqish;
- jamoali/shaxsiy kommunikatsiyaning borishini qayd etish (audio-video va matnli yozuv);
- raqamli muhitda muloqotlar (elektron pochta, chat, videokonferensiya, forum, blog).

Oʻquvchilarning axborot texnologiyalaridan toʻgʻri foydalana olish malakalarini shakllantirish tizimli-faoliyatli yondashish doirasida, oʻquv rejasi barcha fanlarini oʻrganish jarayonida sodir boʻladi, uning natijasi esa, oʻquvchilarni oʻqitish integrativ natijasidan iborat boʻladi. Umumlashtirilgan koʻrinishda bu ushbu dasturda va boshlangʻich umumiy taʼlim asosiy dasturini oʻzlashtirish rejalashtirilgan natijalarida aks ettiriladi.

Axbotor texnologiyalari bilimdonligini universal oʻquv fanlari bilan uygʻunlikda shakllantirish dasturiga kiritilishi taʼlim muassasasiga va oʻqituvchiga har bir fan xususiyatlarini hisobga olib, turli malakalarni oʻzlashtirishda takrorlashlarning oldini olishlariga, turli oʻquv kurslari mazmunini birlashtirishni va sinxronlashtirishni amalga oshirishlariga imkon beradi. Axborot bilan ishlash va axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanishni oʻzlashtirish fakultativ kurslar, toʻgaraklar, oʻquvchilarning sinfdan tashqari faoliyatlari mazmuniga ham kiritilishi mumkin.

Kompyuter savodxonligi shakllantirishning asosiy omillari va ularning mazmuni quyidagilardan iborat.

Axborot texnologiyalari vositalari. Koʻrish organlari, nerv tizimi, faoliyattayanch apparati uchun xavfsiz boʻlgan axborot texnologiyalari vositalari bilan ishlash ergonomik uslublaridan foydalanish. Oʻrnini toʻldiruvchi mashqlarni bajarish. Fayllarva papkalar tizimini tashkil qilish, fayllardagi oʻzgarishlarni eslab qolish, fayllar va papkalarni oʻzgartirish, faylni chop etish.

Axborotni yozish, qayd etish. Bevosita kameradan, jumladan, raqamli mikroskop, mikrofon, raqamli datchiklardan axborotlarni kompyuterga kiritish. Tasvirlar, matnlarni skanerdan oʻtkazish. Axborotni yozib olish (saqlab qolish). Tasvir

ko‘rinishida kiritilgan matnni tanib olish. Foto va video-tasvir qurilmalari, axborotni ko‘chirish, saqlash moslamalari flesh-kartalar bilan asta tanishtirib borish zarur.

**Kompyuterda matn yaratish.** Bunda klaviaturadan foydalanish va uning yordamida matn yaratib, so‘zlarning to‘g‘ri yozilishi, tinish belgilari, orfografiya qoidalarini o‘zlashtirib borishlari, shu bilan birga matnni saqlash, unga o‘zgartirish kiritish va boshqalarni o‘rganish. Matnni terish bilan ona tili va chet tillarini o‘rganishga intilish. Grafik ma‘lumotlar. Grafik planshetda rasm chizish (tayyor rasmdan nusxa olish, shaxsiy rasmlarni yaratish)ni o‘rganish. Oilaviy shajara daraxtini yaratish.

**Matnni tahrir qilish.** Matnga o‘zgarishlar kiritish: so‘z yoki matn qismini o‘chirish, almashtirish, o‘rniga qo‘yish va boshqa amallar vositasida matnni tahrir qilish. Tasvirlarni (slayd-shou), video va audio yozuvlarni tahrir qilish.

**Axborotni qidirish.** Kompyuter lug‘atlaridan biror tushuncha yoki Internetdan axborotni qidirib topish.

Xulosa qilib aytganda, dars jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish pedagog-mutaxassislar quyidagilarga:

- o‘quvchining tabiiy motivatsiyasi, ta‘lim maqsadlari;
- kompyuter savodxonligi bilimlarini o‘zlashtirish natijalarini nazorat qilib borish;
- fan sohasi bo‘yicha axborot texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish;
- fan sohasi bo‘yicha o‘zlashtirishni baholab borishda muhim hisoblangan raqamli portfolioni shakllantirishga e‘tibor qaratishlari lozim

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Azizxodjayeva N.H “Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat”-Toshkent.: TDPU, 2003.
2. Mardanov D. Maktabda kasbga yo'naltirish ishlari. -Nukus. 2013
3. Sariyev Sh. Ma'naviyat ko'zgusi. O'quvchilarning milliy ma'naviyatini shakllantirishda boshlang'ichta'limning o'rni. - T.: "TDPU", 2009.
4. Jumaboyeva M. Umumiy o'rta ta'limda kasbga yo'naltirish ishlarining tuzilmasi va mazmuni. Kurs ishi.Andijon qishloq xo'jaligi instituti, 2014
5. I.A.Karimov “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch” Ma‘naviyat-2008